

**KONSEPT - LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY  
TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA**

**O'rmonova Maftuna Farhodjon qizi**  
*Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Konsept zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Bu termin bir vaqtida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning ham faol qo'llanuvchi muhim kategoriyalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada konsept atamasi bu ikki soha uchun ham umumiy termin bo'lsada, ikkala fan uchun ham ikki xil tushuncha anglatishi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Konsept, tilshunoslik, kategoriya, termin, konseptualizatsiya, konseptual, diaxronik, sinxronik.*

**Annotation:** *The concept is one of the current topics of modern linguists. This term is one of the most actively used categories of both cognitive linguistics and linguaculturology at the same time. In this article, the term concept is defined briefly by showing dissimilarities, although it is clear that it means similar concept for both disciplines.*

**Key words:** *Concept, linguistics, category, term, conceptualization, conceptual diachronic, synchronous.*

### **KIRISH**

“Konsept” – lotincha “conceptus” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuncha” ma’nosini bildiradi. Kognitiv atamalar lug‘atida esa konsept atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. “Konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo’llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda esa konsept atamasi “tushuncha” bilan sinonim sifatida qo’llaniladi.

Bu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o‘z maqolasida qo’llagan. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagи tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir”, deb izoh bergan. Ammo shunga qaramay, ushbu atamaga XX asrning 70-yillarida ham chuqur izoh talab qiladigan muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasining tilshunoslar iste’moliga kirishi 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof, Lakoflarning asarlari bilan bog‘liqdir. Aynan o’sha matnlarda konseptualizatsiya, konseptual mohiyat atamalari uchrab turadi. Konsept tushunchasining lug‘aviy ma’nosini ustida ham ko‘pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga ko‘ra mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor.

### **MUHOKAMA**

Konseptga taniqli rus tilshunosi V.A.Maslova quyidagicha ta’rif bergan: “Bu lingvomadaniy o‘ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir”.

O‘zbek tilshunos olimlaridan N. Mahmudov o‘zining “Til tizimi tadqiqi” nomli risolasining “Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab...” mavzusidagi maqolasida “...konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman

xoli bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir” deb yozadi. Pragmalingvistika hamda kognitiv tilshunoslik asarlari muallifi, tilshunos Sh. Safarov ta'biri bilan aytganda, “...inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalihsda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi.”

Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalihsarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik sohalari nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan. Psixolingvistika nuqtai nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysumuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega.

“Konsept so'z nisbatiga doir aytigan fikr bo'lib, lug'aviy ma'noga qaraganda juda keng.” Konseptlarga tushunarli so'zlarning ma'nosiga mos (соотносительные) tushunchalar sifatida qarash, ehtimol, to'g'ri bo'lar unda konsept so'z ma'nosiga aylanadi. Shunga ko'ra, A. Vensbiskayaning ma'nolar ma'lum ma'noda tilga bog'liq emas, degan fikriga qo'shilish qiyin. Garchi fanda ma'noni tilshunoslik doirasidan nari surgan va uni mohiyatan g'ayrilisoniy kategoriya, tafakkurga xos funksiyalardan biri, ya'ni sof mantiqiy hodisa sifatida qaragan bo'lsa ham, ularda boshqa farqlar ham bor: tushuncha muhim va zarur belgilarni, konsept esa – muhim bo'limgan belgilarni ham ifodalayveradi . Konseptlarga qaraganda, tushunchalar soddarоq tuzilishga (strukturaga) ega: tushunchalar tuzilishida mazmun yetakchi va unda konseptdagi barcha tarkibiy qismlar bo'lavermaydi.

O'.Q.Yusupov konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagи bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobjiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir”, deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi: “konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”.

**Natija.** Shunday qilib, mantiqiy faoliyat hosilasi bo'lgan “tushuncha” va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanilayotgan “konsept” atamalarini bir xil mazmunda qo'llash mumkinmi? So'zsiz bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bularning ikkalasini ham boshlang'ich nuqtasi voqelikdagi predmet – hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq. Paydo bo'lgan hissiy obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual ko'rinishda namoyon bo'ladi. Masalan “gul” bir kishi uchun “atirgul” bo'lsa, boshqasi uchun “rayhon”, yana biri uchun “lola”. Hissiyot va tafakkur faoliyatining yuqori bosqichlarida individual obraz aniq predmetdan aniq uzoqlashib boradi va asl mantiqiy (aqliy) hodisaga aylanadi.Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fodor voqelikning ongda in'ikos etish va bu in'ikosning tafakkurda “qayta ishlanish” jarayonini o'rganayotib, bu jarayonni “tafakkur lisoni”ga o'xshatadi. Chunki, har qanday mantiqiy tasavvur harakatning ma'lum ko'rinishidagi strukturasiga ega bo'ladi, hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishonadi.

Konsept imkoniyati individual hissiy va madaniy tajriba natijasida til egalari tomonidan boyitiladi. Konsept ma'nosi murakkab tuzilgan. Shuning uchun olimlar tomonidan konseptga tizimli hodisa sifatida qaraladi. Bu tizim qatlama so'zi bilan talqin qilinadi. Qatlama nuqtai nazaridan konsept turlarga ajratiladi. Bu turlar ikkita asosga qaratilgan.

Birinchi asos – diaxronik, ikkinchisi – sinxronik. Diaxronik nuqtai nazariga ko'ra konseptlar zamonaviy va tarixiy qatlama ajratiladi. Sinxronik nuqtai nazarida konseptlar ostida yotgan obraz asosiga qaraladi.

**Misol.** Shuningdek, konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, choy konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

- chanqoq bosdi ichimlik: chanqaganda ichiladigan, hattoki yozning chillasida ham ichiladigan issiq ko'k choy;
- mehmondo'stlikning ifodasi: uyga mehmon kelganda nondan keyin dasturxonga tortiladigan eng asosiy mahsulot. Kishilar tanishini uyga taklif etish uchun "bir piyola choy ichib keting" iborasini ishlatishadi;
- bosh og'rig'ini qoldiruvchi malham: bosh og'riganda ko'pchilik, ayniqsa yoshi kattalar achchiq choy damlatib ichishadi;
- kelinlar odobining ifodasi. O'zbek madaniyatida choy uzatishning ham o'z odobi bor, yani o'zbek oilalarida asosan kelinlar avval yoshi kattalarga , turgan holatda, chap qo'llari ko'ksida, o'ng qo'llari bilan choy uzatishadi;
- shunchaki suhbat chog'idagi ermak.

**Yuqoridagi fikrlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki**, konsept tushunchasi har bir individual shaxs va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayondir. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxs hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan shunday holatda konsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi, zotan, konsept dunyoni bilish va u haqda o'z tasavvuriga ega bo'lishga yo'g'irilgan tushunchalar umumlashmasidir. Kognitiv tilshunoslikda turli olimlarning konsept to'g'risidagi fikrlarini o'rganish natijasida yakdil xulosaga kelinmagani ma'lum bo'ladi va bu tilshunoslikning yanada chuqur o'rgamilishi talab etiladigan mavzusi ekanligi namoyon bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-С.267-280.
2. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. - Минск: ТетраСистемс, 2008. -Б.50.
3. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi.Toshkent. "MUMTOZ SO'Z "2017.B.60
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax -2006. B. 25
- 5.Степанов, Прокурин 1993.
- 6.Yusupov O'.Q – Ma'no,tushuncha, konsept va lingvokulturologiya atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.—Toshkent,2011.- bet-49.

7. Maslova B. A. Когнитивная лингвистика. - Минск: ТетраСистемс, 2008. -Б.50.
8. Mirzayeva D. I. O'zbek-Ingliz maqol va matallarining lingvokulturologik hamda pragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi. dessertatsiyasi, avtoreferat. Andijon. 2022.
9. O'rmonova Maftuna Farhodjon qizi. Ingliz va o'zbek tillarida "aql va aqlsizlik"konseptiga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi. Magistrlik dissertatsiyasi. Farg'ona. 2023.
10. Yusupova O. Ingliz tilidan O'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning lingvomadaniy jihatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. Farg'ona. 2022.
11. Urmonova, M., Mirzayeva, D. (2023). Determination of the concept of "intelligence and unintelligence" in English and Uzbek proverbs. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (03), 91-96.
12. Ганиева Д. А. и др. СЕМАНТИКА И СИНТАКСИС ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ //Научный Фокус. - 2023. - Т. 1. - №. 1. - С. 176-179.
13. Dildora A. Ganieva, . (2022). SYNCRETISM AND POLYFUNCTIONALITY OF THE GRAMMATICAL CATEGORY OF MOOD. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(10), 67-74. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-10-09>
14. Д А Ганиева, Г А Турдиева. HIS-HAYAJONNI IFODALOVCHI BIRLIKLER MILLIY XARAKTER VA MILLIY MENTALITET MAHSULI SIFATIDA - МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2021
15. Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. *Uzbek ScholarJournal*, 6, 39-43.
16. Mamurjonovna, Nuraliyeva Dildora. "PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS." (2022): 115-121.
17. Nuralieva, D. M. (2020). CHARACTERISTICS OF MARRIAGE RELATIONS IN PROVIDING PSYCHOLOGICAL AID TO THE FAMILY AND IT INFLUENCE ON THE STRENGTH OF MARRIAGE. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 411-414).
18. Nuraliyeva D. M. Development of socio-psychological mechanisms of psychological services to families and children. - 2019.
19. google scholar